O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

191400, Sherobod tumani, Navoiy ko`chasi, 22-uy, tel:0(376)3222621, fax: 0(376)3221033, sherabod@exat.uz

2022 - yil 12 - avgust 486-8-119-Q/22 Sherobod tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasi taqdim etish chora-tadbirlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2022 yil 06 avgustdagi 450-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 85-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 12 apreldagi 03/03-03-01-32/855-sonli xati bilan 2023-2025 yillar uchun Davlat budjeti loyihasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan O‘rta muddatli budjetni tayyorlash bo‘yicha yagona uslubiy qo‘llanma ma’lumot va ijro etish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90^2-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 20 iyundagi 03/03-03-01-32/2314-sonli xati bilan Surxondaryo viloyat Sherobod tumani mahalliy budjetining 2023 yilgi mahalliy budjetlariga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdori 113 827,2 mln.so‘m ajratilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Sherobod tuman hokimining moliya bo‘limi (O.Absaev)ga:

ikki ish kuni ichida 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish tartibini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga;

uch kun muddatda Sherobod tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga — kelgusi moliya yili uchun ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlarini yetkazilishini ta’minlasin.

4. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini Sherobod tumani hokimligining moliya bo‘limiga taqdim etish muddatlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ishchi guruhi rahbari (U.Panjiyev)ga Surxondaryo viloyati Sherobod tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzishda loyihani taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmasligini nazarda tutsin.

7. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Jumaev):

tuman bo‘yicha 2023 yil uchun budjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda:

Davlat budjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq organlari va hokimliklarning bo‘limlari, viloyat, boshqaruv organlarining bo‘linmalari tomonidan ma’muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida soliq turlari kesimida ishlab chiqib, tuman hokimligiga joriy yilning 5 avgust kuni qadar taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Sherobod tumani hokimligining moliya bo‘limi Surxondaryo viloyati Sherobod tuman mahalliy budjetining 2023 yil uchun budjet so‘rovi va

2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini joriy yilning 9 avgust kuniga qadar Surxondaryo viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Sherobod hokimining birinchi o‘rinbosari U.Panjiyev zimmasiga yuklansin.

Hokim **Davlatov Z.**

Sherobod tuman hokimining
2022 yil 12 avgustdagi
486-8-119-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani mahalliy byudjetining 2023 yil uchun byudjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi

T A R K I B I*

1.	U.Panjiyev	- Sherobod hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari ishchi guruh rahbari
2.	O.Absayev	- Sherobod hokimligining moliya bo‘limi mudiri, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3.	Sh.Jumayev	- Sherobod tuman Davlat soliq inspeksiyasiboshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
Ishchi guruhi a’zolari:		
4.	A.Xakimov	- tuman Xalq ta’limi bo‘limi boshlig‘i
5.	A.Sobirov	- tuman TTB boshlig‘i
6.	A.Pirmatov	- tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i
7.	G'.Sulaymonov	- tuman Bandlik bo‘limi boshlig‘i
8.	I.Quvatov	- tuman Madaniyat ishlari bo‘limi boshlig‘i
9.	A.Allaberdiyev	- tuman hokimligining moliya bo‘limi mudirining birinchi o‘rinbosari, ishchi guruhi kotibi

***** Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan hollarda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Sherobod tuman hokimining
2022 yil 12 avgustdagi
486-8-119-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Sherobod tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2023 yil uchun budjet so‘rovi va 2024-2025 yillar uchun budjet mo‘ljallarini Sherobod tumani hokimligining moliya bo‘limiga taqdim etish

MUDDATLARI

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi		Muddati
1.	Sherobod tuman xokimligi	-	2022 yil 9-avgust
2.	Tibbiyot birlashmasi	-	2022 yil 9-avgust
3.	Xalq ta’limi bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
4.	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
5.	Moliya bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
6.	Kengash kotibiyati	-	2022 yil 9-avgust
7.	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
8.	Tuman Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va xisobotini yuritish markazi	-	2022 yil 9-avgust
9.	Tuman Veterinariya bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
10.	Obodonlashtirish boshqarmasi	-	2022 yil 9-avgust
11.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
12.	Yoshlar ishlari agentligi tuman	-	2022 yil 9-avgust
13.	Madaniyat bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
14.	Bolalar o‘smirlar sport maktabi	-	2022 yil 9-avgust
15.	Bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	-	2022 yil 9-avgust
16.	Bolalar musiqa va san’at maktabi	-	2022 yil 9-avgust
17.	Axborot kutubxona markazi	-	2022 yil 9-avgust